



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA 2019 YIL YANVAR- AVGUST OYLARI UCHUN SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLAR

Sanoat mahsuloti hajmi
8268,5 mlrd.so'mni,
sanoat ishlab chiqarish
indeksi 101,4 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish
hajmi 1421,7 mlrd.so'mni va o'sish
sur'ati 107,4 % tashkil etdi.

Iste'mol tovarlarining jami sanoat
ishlab chiqarish hajmadagi ulushi
17,2 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi –
23,3 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-avgust oylarida respublika korxonalarini tomonidan 8268,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,4 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 88,1 % tashkil etadi.

Sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 7,6 % tashkil etti.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (indeks - 113,3 %)
- Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati) (indeks - 100,5 %)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (indeks -102.2 %)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish (indeks-104.6 %)




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 267,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,2 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iycha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 2,8 % ga, chaqiq tosh 2,7 martaga oshganligini kuzatish mumkun. Gaz kondensati 10,6 % ga, tabiiy gaz 3,2% ga pa'sayishi kuzatildi.

TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI






ISHLAB CHIQRADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7284,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 88,1 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,9 % (2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 1,8 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali 66,0 % (74,0 %), o'rta-quyi texnologiyali 6,6 % (4,2 %) va quyi texnologiyali 25,5 % (20,0 %) tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



● Yuqori texnologiyali
 ● O'rta-yuqori texnologiyali
 ● O'rta-quyi texnologiyali
● Quyi texnologiyali

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan, yumshoq bug'doy uni 2,7 % ga, bug'doy noni 7,9 % ga, yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa 2,6 % ga va karbonat dinatriya 4,5 % ga oshganligini va paxta tolasi, makaron mahsuloti o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada pasayganligini kuzatish mumkin.



ISHLAB CHIQRADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2018 yil yanvar-avgustda
ishlab chiqarilgan

OZIQ-OVQAT
MAHSULOTLARI

2019 yil yanvar-avgustda
ishlab chiqarilgan



711980,2
mln.so'm



Fizik hajim indeksi
113,7 % da



1010038,9
mln.so'm

ICHIMLIKLAR ISHLAB
CHIQRARISH



66989,9
mln.so'm



Fizik hajim indeksi
105,3 % da



100584,5
mln.so'm



ISHLAB CHIQRADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2018 yil yanvar-avgust
ishlab chiqarilgan

2019 yil yanvar-avgust
ishlab chiqarilgan

TEKSTIL MAHSULOTLARI



421185,7
mln.so'm



Fizik hajim indeksi
112,0 %



605729,8
mln.so'm

FARMATSEVIKA MAHSULOTLARI VA PREPARATLARI



16358,1
mln.so'm



Fizik hajim indeksi
147,0 % da



33154,2
mln.so'm



Yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

	2019 yilda ishlab chiqarilgan	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Paxta tolasi, t	24916,0	30663,6	81,3
O'simlik yog'i (tozalangan), t	7294,0	7726,0	94,4
Tozalangan guruch, t	2887,4	3454,6	83,6
Yumshoq bug'doy uni, t	51180,0	49814,4	102,7
Bug'doy noni, t	1834,1	1699,8	107,9
Makaron mahsuloti, t	749,1	2004,0	37,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, t	28346,2	27618,0	102,6
Aroq, ming.l. 100% spirt	2585,8	2581,6	100,2
Karbonat dinatriya, ming.t.	126,0	120,5	104,5
Polietilen, t.	245506,6	259701,3	94,5
Polipropilen, t.	64496,2	67856,0	95,0

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 627,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,6 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,6 % ga, issiqlik energiyasini ishlab chiqarish 2,5 % ga kamayishi kuzatildi.



SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 88,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni 12,4 % ga pasayganligi va oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 1,3 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning 22,1 % ga, xafsiz bo'lgan chiqindilarni yig'ish xizmatlari 3,1 martaga oshganligi kuzatildi.

ISTE'MOL TOVARLARNI ISHLAB CHIQRISH

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1421,7 mlrd.so'mni o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,4 % ni tashkil etti va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 17,2 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, % da






ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQRARISH

2019-yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 734,9 mlrd.so'mni tashkil etib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 51,7 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 590,4 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 41,5 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 96,4 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 6,8 % tashkil etdi.


2019 YILNING YANVAR-AVGUST OYIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQRARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA

Respublika bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng ko'p ulush Nukus sh. (respublika bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining 34,0 % ulushini) Xo'jayli (9,6%), To'rtko'l (8,5%), Beruniy (7,3%), Qo'ng'iro't (6,7%). Shu bilan birga eng kam ulush Mo'ynoq (respublika bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining 0,9 %), Taxtako'pir (1,1%) va Qonliko'l (1,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





2019 YILNING YANVAR-AVGUST OYLARIDA HUDUDLARDA ISTE'MOL TOVARLARNI O'SISH SURATI, % DA



Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushni Qo'ng'iro't tumani (117,1 %), Chimboy tumani (115,1 %), Nukus sh. (114,2 %), Beruniy tumani (109,1 %) tashkil etadi.

Shu bilan birga eng kam ulushi Amudaryo tumani, Qonliko'l tumani, Nukus tumani, Xo'jayli tumani va Ellikqal'a tumanlari (100,0 %) xissasiga tug'ri keladi.



HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nukus sh (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 66,1 % ulushini), Taxiatoş tumani (7,1 %), Xo'jayli tumani (3,2 %), Amudaryo tumani (2,8 %) va Mo'ynoq tumani (2,7 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Taxtako'pir (0,3 %), Shumanay (0,4 %), Nukus (0,6 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 YILNING YANVAR-AVGUST OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQRISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA





SANOAT ISHLAB CHIQRISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI


Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1926,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,3 % tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay va Ellikqal'a (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100%), Qorao'zak (99,99 %), Taxtako'pir (99,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (8,3 %), Mo'ynoq (11,8 %), Taxiato'sh (14,5 %) tumanlarida kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISHDAGI ULUSHI, % DA






Foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar.

Bugungi kunda respublikada 2201 sanoat korxonalari foaliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning 566 tasin yangi sanoat korxonalari tashkil etadi. Yangi tashkil etilgan korxonalarining qariyb 53,9 % Nukus shahri, Beruniy, Amudaryo, Ellikqal'a va To'rtko'l tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yil 1 sentyabr holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik



Q.R Statistika boshqarmasi
sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (61) 222-75-87